

“O‘zbektelekom” Aksiyadorlik Kompaniyasiga 2024-yilning 3-choragi davomida (1-iyul-1-oktabr holatiga) jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

“O‘zbektelekom” AKga joriy yilning 3 choragi davomida jami 1 341 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, 2-chorak davomida (1 355 ta)ni tashkil etgan, ya’ni 1 % ga kamaygan.

Shulardan, simli internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha 362 ta (388 ta), simli internet sifati bo‘yicha 341 ta (374 ta), aloqa va axborot texnologiyalari xodimi xatti-harakatlari 108 ta (90 ta), mobil aloqa sifati 52 ta (51 ta), mobil aloqa tayanch (baza) stansiyalarini o‘rnatish yoki olib tashlash 49 ta (44 ta), simli internet xizmatining to‘lovlari 28 ta (35 ta),), tabriklar, minnatdorlik va tashakkurnomalar 24 ta (35 ta) va turli masalalar bo‘yicha 377 ta (338 ta) murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlarga o‘rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda javob berilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda joriy yilning 3-choragi davomida kelib tushgan barcha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi 97 % tashkil etgan bo‘lib, 2-chorak davomida 97 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, Kompaniya rahbariyati tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga asosan, joriy yil iyul-sentabr oylarida Jizzax viloyatining Forish tumani, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri, Surxondaryo viloyatining Boysun tumanlarida sayyor qabullar tashkil etildi.